



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN

## FAOLIYATINING

## XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA UYINNING AHAMIYATI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
pedagogika fakulteti maktabgacha talim  
yo'naliши 1-kurs 2,24-guruh talabasi*

*Berdimurodova E'zoza.*

*Abdumurodova Sevinch*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati, uning rivojlanish bosqichlari va psixologik-pedagogik xususiyatlari yoritilgan. O'yin orqali bolaning inteliktual, ijtimoiy va imotsiyalari rivojlanishiga qanday ta'sir etilishi haqida tahliliy fikrlar berilgan. Shuningdek, o'yin faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati, uning bolalar shaxsiyati shakllanishidagi o'rni va turli o'yin turlarning ta'lif jarayonidagi samaradorligi muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lif, o'yin faoliyati, psixologik rivojlanish, didaktik o'yin rolli o'yin, bolaning shaxsiyati, tarbiya ijodkorligi.

O'yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi g'oyat katta ahmiyatini nazarda tutib mashhur pedagoglar va mutafakkir yozuvchilar o'zlarining bu masalaga doir qimmatbaho fikrlarini yozib qoldirganlar. A.S.Makarenkoning fikricha bolalarning o'yin faoliylari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahmiyatli bo'lsa bolalar uchun o'yin shunchalik ahmiyatga ega. O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribayasini egallaydi, ta'lif faoliyatiga tayyorlaydi. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki unda bolalar masub bo'lgan mehnat ham, narsalar haqida fikr yuritishi ham, san'at, xayol qilish, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlashtirilgandur. O'yinning bolalarni maftun etuvchi tomoni anashunda. Bolalarning haddan ziyod o'yinga berilib ketishi (xayoliy



tarzda cho'pdan yasalgan otni, stulchalardan qilingan paraxodni berilib haydashi) real voqelikdan chetga chiqib ketishi deb qaramaslik kerak. Bola o'zining voqelikka bo'lган cheksiz muhabbatini va undagi narsa hamda hodisalarni bilishga bo'lган intilishini o'zining xilma-xil o'yin faoliyatlarida ifoda etadi. Shuning uchun bola o'zining turli variantdagi o'yinlarida hayoliy muhit yaratib, voqelikni mumkin qadar to'la va to'g'ri aks ettirishga intiladi. Chet el psixologlaridan J.Piazi va Koffkanning fikricha, bolalar go'yoki bir-biridan ajratilgan ikki xil dunyoda yani xayollar, afsonalar dunyosida va real voqey dunyoda yashaydilar. Bolalar o'zlarining faoliyatlarida qanchalik xayolga berilib ketmasinlar, har doim voqey dunyoga, undagi real narsalarga nazar tashlab turadilar. Psixolok A.N.Leontevning fikricha bolalarning o'yin faoliyatlarida real voqeylikdan chetga chiqib ketish darajasidagi afsonaviylik yuq. Bolalar o'yinlaridagi turli-tuman harakatlar va narsalar voqeylikda haqiqatdan bor bo'lган real harakat va real voqeylik bilan, bog'liqlik bilan bo'lмаган xayoliy, afsonafiy o'yinlar yaratishning hali uddasidan chiqa olmaydi. Bolaning hayoti qanchalik mazmundar va yashash doirasi qanchalik keng bo'lsa uning o'yinlari ham shunchalik xilma-xil bo'ladi natijada bola zerikib qolmaydi. Bolalarning psixik rivojlanishiga o'yinchoqlarning ta'siri ham bor. O'yinchoqning bola psixik taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish ishlariga XIX arsga kelib jiddiy etibor berala boshlaydi. Bu yo'nalishdagi birinchi tatqiqot ishlarini nemis pedagogi Frebel tomonidan ilmiy tomonlama o'rganildi. Frebel o'z tatqiqotlarida bolaning dunyoga kelgan birinchi kunlaridanoq bilish jarayonlarini rivojlantirish zarurligini aytib o'tadi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati, uyinning umumiyligi haraktiriga ega bo'lishidir. Bola o'zining turli- tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lган yolg'iz bir kasb egasining emas umuman haydovchilarning, millitsionerlarning, tarbiyachilarning, uchuvchilarning, katta harakatlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aaytganda maktabdagagi yoshgacha bolalar uchun o'yin faoliyatining ularning har tomonlama rivojlanishiga asosiy vositadir. O'yin orqali bola hayotini o'rganadi, o'zini anglaydi, shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli maktabgacha talim muassasalarida o'yin faoliyatiga asoslangan metodikalar keng qo'llanilishi zarur.



**FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR.**

- 1.Makarenko.A.S. Pedagogik asarlar-Toshkent.1986
- 2.Leontev.A.N Faoliyat, ong va shaxs-Maskva:Pedagogika.1975
- 3.Piaje .J. Bolalar taffakuri va dunyo qarashi.
- 4.Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.
- 5.Z.T.Nishonova. Nizomiy nomidagi TDPU proffessori psixologiya fanlari doktori.
- 6.S.T.Madaliyeva. 1 TPK psixologiya fan o'qituvchisi.
- 7.Pardayeva G. o'yin faoliyatining nazariy asoslari. Toshkent 2021.